IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
**Volume 24. Issue 01. Oktabr, 2026**

# ONA TILINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Jo‘rayev Zafar Zokirovich**
Qashqadaryo viloyati Yakkabog‘ tumani
89-umumiy o‘rta ta'lim maktabining ona
tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23206440

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ona tili ta’limi jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Zamonaviy ta’lim sharoitida o‘quvchining faqat grammatik bilimlarni egallashi emas, balki mustaqil fikrlashi, o‘z fikrini og‘zaki va yozma ravishda aniq ifodalashi, matnni tahlil qilishi hamda kommunikativ vaziyatlarda tildan samarali foydalanishi muhim vazifa sifatida qaraladi. Maqolada interfaol metodlar, muammoli ta’lim, loyiha metodi, hamkorlikda o‘qitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli ta’lim vositalari va zamonaviy baholash usullarining ona tili darslaridagi imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, pedagogik texnologiyalarni tanlashda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim darajasi va individual imkoniyatlarini hisobga olish zarurligi asoslangan.
**Kalit so‘zlar:** ona tili, pedagogik texnologiya, interfaol metod, kommunikativ kompetensiya, raqamli ta’lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, muammoli ta’lim, loyiha metodi, nutqiy faoliyat, mustaqil fikrlash.

Bugungi kunda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar o‘qitish mazmuni bilan bir qatorda ta’lim metodlarini ham takomillashtirishni talab qilmoqda. Zamonaviy ta’limning asosiy maqsadi o‘quvchiga imkon qadar ko‘proq ma’lumot berish emas, balki unda mustaqil bilim olish, axborotni izlash va tahlil qilish, o‘z fikrini asoslash hamda egallagan bilimlarini amaliy faoliyatda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ham ta’limning insonparvarlik, demokratik va uzluksizlik tamoyillari asosida tashkil etilishi belgilangan [1]. Bu esa o‘qituvchi faoliyatida o‘quvchining shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olish va uni ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Ona tili fani umumiy ta’lim tizimida alohida ahamiyatga ega. Chunki ona tili orqali o‘quvchi nafaqat tilning grammatik qurilishi va lug‘at tarkibi haqida bilim oladi, balki o‘z fikrini ifodalash, boshqalar bilan muloqot qilish, turli axborotlarni anglash va ularni qayta ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Til shaxsning tafakkuri va ijtimoiy faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgani sababli ona tili darslarida nazariy bilim bilan amaliy nutqiy faoliyatning uyg‘unligini ta’minlash muhimdir. N. Mahmudov nutq madaniyatini insonning til vositalaridan maqsadga muvofiq va samarali foydalanish qobiliyati bilan bog‘laydi [2]. Demak, ona tili ta’limida o‘quvchining nutqiy imkoniyatlarini rivojlantirish asosiy vazifalardan biri bo‘lishi lozim.

Pedagogik texnologiya ta’lim jarayonini oldindan loyihalashtirish, belgilangan maqsadga muvofiq tashkil etish va kutilgan natijalarni ta’minlashga yo‘naltirilgan tizimli faoliyat sifatida qaraladi. O‘. Tolipov va M. Usmonboyeva pedagogik texnologiyani ta’lim jarayonining

samaradorligini ta’minlashga qaratilgan ilmiy-metodik tizim sifatida talqin qiladilar [3]. Bunday yondashuv ona tili darslarini tashkil etishda o‘qituvchidan nafaqat mavzuni tushuntirish, balki o‘quvchilarning faoliyatini loyihalashtirish va ularning mustaqil ishlashiga sharoit yaratishni talab qiladi.

Ona tili darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, avvalo, o‘quvchining darsdagi faolligini oshirishga xizmat qiladi. An’anaviy ta’limda o‘qituvchi asosiy axborot manbai sifatida namoyon bo‘lsa, zamonaviy ta’limda o‘qituvchi ko‘proq yo‘naltiruvchi, maslahat beruvchi va ta’lim jarayonini tashkil etuvchi vazifani bajaradi. O‘quvchi esa bilimni tayyor holda qabul qiluvchi emas, balki uni izlash, tahlil qilish va amaliy faoliyat orqali egallovchi subyekt sifatida qaraladi. N. Azizxo‘jayeva pedagogik texnologiyalarni o‘quvchi faoliyatini tashkil etish va ta’lim samaradorligini oshirish bilan bog‘laydi [4]. Ona tili ta’limida eng ko‘p qo‘llanish imkoniyatiga ega zamonaviy metodlardan biri interfaol o‘qitish metodlaridir. Interfaol metodlar o‘quvchilarni o‘zaro hamkorlikka, fikr almashishga va muayyan muammo yuzasidan mustaqil xulosa chiqarishga undaydi. “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Venn diagrammasi”, “Insert”, “Bumerang”, “Sinkveyn”, “Bahs-munozara” kabi metodlardan mavzuning mazmuniga qarab foydalanish mumkin. Bunday metodlar o‘quvchining tayyor javobni kutib o‘tirishiga emas, balki o‘z bilim va tajribasidan foydalanib fikr bildirishiga imkon yaratadi. Masalan, o‘quvchilarga sinonimlar mavzusini o‘rgatishda “Klaster” metodidan foydalanish mumkin. O‘qituvchi markazga ma’lum bir so‘zni yozadi va o‘quvchilar uning ma’nodosh variantlarini topib, ularni tegishli guruhlarga ajratadilar. Keyingi bosqichda hosil bo‘lgan so‘zlarning ma’no nozikliklari va nutqdagi qo‘llanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Shu tariqa o‘quvchi sinonim tushunchasini faqat ta’rif orqali emas, balki amaliy faoliyat orqali anglaydi. Interfaol metodlarning asosiy afzalligi ham shundaki, ular bilimni o‘quvchining faol harakati orqali shakllantirish imkonini beradi [5]. Ona tili darslarida muammoli ta’lim texnologiyasidan foydalanish ham samarali natija beradi. Muammoli ta’limda o‘quvchiga tayyor qoida yoki xulosa berish o‘rniga, uni muayyan savolga javob topishga yo‘naltiradigan vaziyat yaratiladi. Masalan, o‘qituvchi ikki xil gapni taqdim etib, ularning grammatik tuzilishidagi farqni aniqlashni so‘rashi mumkin. O‘quvchilar misollarni kuzatib, taqqoslaydi va o‘z xulosalarini asoslaydi. Shundan so‘ng o‘qituvchi ilmiy jihatdan to‘g‘ri grammatik qoidani umumlashtirib beradi. Bu usul o‘quvchining tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Muammoli ta’limning muhim jihati o‘quvchining bilishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishidir. Agar o‘quvchi muayyan savolga javob topish jarayonida o‘z fikrini ilgari sursa, xatolarini tahlil qilsa va yakuniy xulosaga mustaqil ravishda yaqinlashsa, bilim uning xotirasida mustahkamroq saqlanadi. J. G‘. Yo‘ldoshev va S. Usmonov pedagogik texnologiyalarda o‘quvchining faol faoliyatini tashkil etish ta’lim samaradorligining muhim shartlaridan biri ekanini ta’kidlaydilar [6].

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning yana bir muhim yo‘nalishi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishdir. Bugungi kunda elektron taqdimotlar, multimedia materiallari, elektron lug‘atlar, interaktiv testlar, ta’lim platformalari va turli raqamli resurslardan foydalanish imkoniyati kengaymoqda. Ona tili darslarida multimedia vositalaridan foydalanish o‘quvchilarga matn, tasvir, audio va video materiallarni birgalikda qabul qilish imkonini beradi. Bu esa ayniqsa turli o‘quv ehtiyojlariga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun qulay ta’lim muhitini yaratadi. UNESCO tomonidan ta’limda texnologiyalardan foydalanishga

bag‘ishlangan tadqiqotlarda raqamli texnologiya ta’limning o‘zi emas, balki aniq pedagogik maqsadlarga xizmat qiladigan vosita sifatida qaralishi lozimligi qayd etilgan [7]. Bu fikr ona tili darslari uchun ham muhimdir. Chunki texnologiyadan foydalanishning o‘zi dars sifatini avtomatik ravishda oshirmaydi. Eng muhimi, o‘qituvchi texnologiyani dars maqsadiga mos tanlashi va undan metodik jihatdan to‘g‘ri foydalanishi kerak. Masalan, “So‘z turkumlari” mavzusida interaktiv taqdimotdan foydalanib, o‘quvchilarga turli gaplar berilishi va ular tarkibidagi so‘zlarni tegishli turkumlarga ajratish topshirilishi mumkin. Javoblar elektron shaklda tekshiriladi va xatolar yuzasidan izoh beriladi. Bunday mashg‘ulot o‘quvchiga tezkor fikr-mulohaza olish imkonini beradi. Shuningdek, elektron testlar yordamida o‘quvchilarning mavzuni o‘0zlashtirish darajasini qisqa vaqt ichida aniqlash mumkin.

Ona tili ta’limida loyiha metodidan foydalanish ham o‘quvchilarning mustaqil izlanish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Loyiha asosida ta’lim o‘quvchiga muayyan mavzu yuzasidan ma’lumot to‘plash, uni tahlil qilish, umumlashtirish va yakuniy natijani taqdim etish imkonini beradi. Masalan, “Mahallamizdagi shevaga xos so‘zlar”, “O‘zbek tilidagi yangi so‘zlar”, “Maqollar tilimizning boyligi sifatida”, “O‘zbek tilida kasb-hunarga oid so‘zlar” kabi mavzularda kichik loyihalarni tashkil etish mumkin.

Bunday loyihalar davomida o‘quvchi oila a’zolari, mahalla vakillari yoki boshqa suhbatdoshlar bilan muloqot qilib, til materiallarini yig‘ishi mumkin. Keyinchalik to‘plangan materiallar adabiy til me’yorlari bilan taqqoslanadi va tegishli xulosalar chiqariladi. Natijada ona tili darsi bevosita hayotiy tajriba bilan bog‘lanadi. O‘quvchi tilning faqat darslikdagi qoidalar yig‘indisi emas, balki jamiyat hayotida doimiy ravishda rivojlanib boradigan hodisa ekanini anglaydi. Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi ham ona tili fanini o‘qitishda muhim metodik imkoniyatlardan biridir. Guruhlar yoki juftliklar bilan ishlash jarayonida o‘quvchilar bir-birining fikrini tinglaydi, savol beradi, o‘z qarashlarini himoya qiladi va umumiy xulosaga keladi. Bu jarayon o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish uchun muhimdir. Chunki tilni yaxshi bilish faqat grammatik qoidalarni egallash emas, balki real muloqotda fikrni to‘g‘ri va tushunarli yetkazish qobiliyatini ham nazarda tutadi. Ona tili ta’limida kommunikativ yondashuvning ahamiyati shundan iboratki, o‘quvchi til birliklarini real nutqiy vaziyatlarda qo‘llashni o‘rganadi. Bunda “Qaysi qoida?” degan savol bilan bir qatorda “Ushbu so‘z qaysi vaziyatda qo‘llanadi?”, “Mazkur fikrni boshqa qanday ifodalash mumkin?”, “Qaysi variant nutq uchun maqsadga muvofiq?” kabi savollardan foydalanish mumkin. Shu tariqa grammatik bilim amaliy nutqiy ko‘nikma bilan bog‘lanadi.

Ona tili darslarida matn bilan ishlash zamonaviy metodik yondashuvlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Matn asosida o‘quvchilarga asosiy fikrni aniqlash, tayanch so‘zlarni topish, gaplar o‘rtasidagi mantiqiy aloqalarni aniqlash, matnni davom ettirish yoki unga sarlavha tanlash kabi topshiriqlar berilishi mumkin. Bunday mashqlar o‘quvchilarning o‘qib tushunish va fikrni mantiqiy ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishda ham zamonaviy pedagogik texnologiyalar samarali natija beradi. Masalan, o‘quvchilarga ma’lum bir mavzu bo‘yicha qisqa esse, izoh, xat yoki maqola yozish topshirig‘i berilishi mumkin. Keyingi bosqichda o‘quvchilar o‘zaro ish almashib, matnni belgilangan mezonlar asosida baholaydilar. Bunday yondashuv o‘quvchiga o‘zining va boshqalarning yozma ishlarini tahlil qilish imkonini beradi.

Baholash jarayonini takomillashtirish ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarning muhim jihatlaridan biridir. Formativ baholash, o‘z-o‘zini baholash va o‘zaro baholash usullaridan foydalanish o‘quvchining o‘z ta’lim natijalarini anglashiga yordam beradi. Bunda baholash faqat yakuniy natijani aniqlash vositasi emas, balki keyingi o‘quv faoliyatini takomillashtirish vositasiga aylanadi. O‘quvchiga o‘z ishining kuchli va zaif tomonlarini ko‘rsatib berish uning keyingi faoliyatini to‘g‘ri yo‘naltirish imkonini beradi. Ona tili darslarida individual yondashuvdan foydalanish ham muhimdir. Har bir o‘quvchining bilim darajasi, qiziqishi va o‘zlashtirish tezligi turlicha bo‘lishi mumkin. Shu sababli topshiriqlarni murakkablik darajasiga ko‘ra farqlash maqsadga muvofiq. Bilimi sustroq o‘quvchiga tayanch so‘zlar va namunalar asosida topshiriq berilsa, yuqori bilimga ega o‘quvchiga mustaqil matn yaratish yoki lingvistik tahlil topshirig‘i berilishi mumkin. Bu usul ta’lim jarayonida o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olishga yordam beradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish masalasini ham kun tartibiga olib chiqmoqda. Sun’iy intellekt asosidagi dasturlar matn yaratish, matnni tahlil qilish, imlo va grammatik xatolarni aniqlash, topshiriqlar tayyorlash kabi jarayonlarda yordamchi vosita bo‘lishi mumkin. Biroq bunday texnologiyalardan foydalanishda o‘quvchining mustaqil fikrlashi va ijodiy faoliyatini saqlab qolish muhim. Sun’iy intellekt o‘quvchining o‘rniga tayyor javob beradigan vosita emas, balki ta’lim jarayonini qo‘llab-quvvatlovchi yordamchi vosita sifatida qo‘llanishi lozim. Ona tili ta’limida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali qo‘llash ko‘p jihatdan o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasiga bog‘liq. O‘qituvchi pedagogik texnologiyalarning mohiyatini tushunishi, ularning imkoniyatlarini bilishi va konkret dars sharoitiga mos metodni tanlay olishi zarur. Har qanday metodni faqat zamonaviyligi yoki ommalashganligi uchun qo‘llash to‘g‘ri emas. Metod dars maqsadiga, mavzu mazmuniga va o‘quvchilarning imkoniyatlariga mos kelgandagina ta’lim samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi pedagogik hamkorlik muhim o‘rin tutadi. O‘qituvchi o‘quvchini xatolari uchun jazolashdan ko‘ra, xatoni tahlil qilish va undan to‘g‘ri xulosa chiqarishga yo‘naltirishi kerak. Ayniqsa, ona tili darslarida o‘quvchining erkin fikr bildirishi uchun qulay psixologik muhit yaratish zarur. Chunki o‘quvchi o‘z fikrini erkin ifoda qilgan sari uning nutqiy imkoniyatlari rivojlanadi. Xulosa qilib aytganda, ona tilini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’lim jarayonining mazmunini boyitish, o‘quvchilar faolligini oshirish va ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning samarali vositalaridan biridir. Interfaol metodlar, muammoli ta’lim, loyiha metodi, hamkorlikda o‘qitish, raqamli texnologiyalar va zamonaviy baholash usullari o‘quvchini ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Bunday yondashuv orqali o‘quvchi grammatik qoidalarni shunchaki yodlab qolmasdan, ularni amaliy nutqiy faoliyatda qo‘llashni o‘rganadi.

Zamonaviy texnologiyalarni ona tili darslariga tatbiq etishda asosiy e’tibor texnologiyaning o‘ziga emas, uning pedagogik maqsadga qanchalik xizmat qilishiga qaratilishi lozim. O‘qituvchining metodik mahorati, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, dars mazmunini hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash va o‘quvchini mustaqil fikrlashga undash zamonaviy ta’lim samaradorligini belgilovchi muhim omillardir. Shu jihatdan ona tili ta’limida pedagogik texnologiyalardan oqilona foydalanish nafaqat o‘quvchilarning fan bo‘yicha

bilimlarini, balki ularning nutqiy savodxonligi, ijodiy fikrlashi, kommunikativ madaniyati va mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-637-son, 23.09.2020.
2. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. [3] Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
3. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2006.
4. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2008.
5. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
6. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in education: A tool on whose terms? – Paris: UNESCO, 2023.
7. G‘ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M. va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
8. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi: Nasaf, 2000.
9. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003.